

**PEDAGOG FAOLIYATIDA NUTQ TEXNIKASI, MADANIYATI TURLARI
VA SHAKLLARI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti Musiqa
ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

Adxamova Ma'suma Anvarjon qizi

*Ilmiy rahbar: Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi professor o'qituvchisi
Mahliyo To'lanova Murodali qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog faoliyatida nutq texnikasi va nutq madaniyatining o'рни, ularning o'qituvchi kasbiy mahoratini shakllantirishdagi ahamiyati hamda nutq texnikasining asosiy unsurlari, nafasni boshqarish, ovoz tembri va balandligi, to'g'ri talaffuz, pauza va urg'ulardan foydalanish kabi mezonlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagog nutqining madaniyati, uning turlari hamda og'zaki va yozma nutq shakllarining ta'lim jarayonidagi roli ochib beriladi. Qolaversa, o'qituvchining nutqi o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasiga, muloqot kompetensiyalariga va psixologik holatiga ko'rsatadigan ta'siri haqida fikrlar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, nutq, nutq texnika, madaniyat, talaffuz, intonatsiya, og'zaki nutq, yozma nutq, kommunikativ kompetensiya, pedagog mahorati, ta'lim.

**SPEECH TECHNIQUE, CULTURE, TYPES, AND FORMS IN
PEDAGOGICAL ACTIVITIES**

Annotation: This article analyzes the role of speech technique and speech culture in pedagogical activity, their importance in shaping the professional skills of teachers, and the main elements of speech technique, such as breath control, voice timbre and pitch, correct pronunciation, and the use of pauses and emphasis, from a scientific-theoretical perspective. In addition, the article examines the culture of teachers' speech, its types, and the role of oral and written forms of speech in the educational process. Furthermore, the impact of teachers' speech on students' learning motivation, communication competencies, and psychological state is substantiated.

Keywords: pedagogue, speech, speech technique, culture, pronunciation, intonation, oral speech, written speech, communicative competence, pedagogical skill, education.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagog shaxsining kasbiy mahorati va kommunikativ kompetensiyasi o'quv-tarbiya faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Pedagogning nutqi nafaqat bilim berish vositasi, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchilar bilan ijobiy muloqot muhitini shakllantirish, ularning tafakkuri va dunyoqarashiga yo'naltirilgan ta'sirchan vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois pedagogik faoliyatda nutq texnikasi, nutq madaniyati, ularning turlari va shakllarini chuqur o'rganish hozirgi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimidagi yangilanishlar, interfaol metodlarning keng joriy etilishi, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi pedagogdan yanada yuqori darajadagi nutq mahoratini talab qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi nutqining aniqligi, mantiqiyliqi, emotsional ta'siri, undagi intonatsiya, tembr, pauza kabi texnik elementlar darsning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq madaniyati esa pedagogning kasbiy etikasini, saviya va ma'naviy dunyosini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkich bo'lib, o'quvchilar ongida o'qituvchi shaxsiga nisbatan hurmat va ishonch uyg'otadi.

METADALOGIYA

Pedagog faoliyatida nutq texnikasi va nutq madaniyati o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'qituvchining nutqi nafaqat bilim berish vositasi, balki tarbiyaviy, psixologik va kommunikativ ta'sir kuchiga ega bo'lgan pedagogik quroldir. Shu sababli nutq texnikasi, nutq madaniyati turlari va shakllarini puxta egallash har bir pedagog uchun zarur kompetensiya hisoblanadi. Nutq texnikasi o'qituvchining ovozidan ongli va maqsadli foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. Bunga nafas olishni boshqarish, ovozning balandligi va tembrini sozlash, so'zlarni aniq talaffuz qilish, pauzalarni to'g'ri qo'llash, urg'ularni joyida ishlatish kiradi. Pedagog dars jarayonida ovozini haddan tashqari baland yoki juda past ishlatmasligi, o'quvchilar e'tiborini jalb qiladigan darajada barqaror va ravon ohangda gapirishi muhim. Nutq texnikasining asosini to'g'ri nafas olish tashkil etadi. Diafragmal nafas mashqlari o'qituvchining uzoq vaqt davomida charchamasdan gapirishiga yordam beradi. Shuningdek, artikulyatsiya mashqlari so'zlarning aniq va ravon talaffuz qilinishini ta'minlaydi. Nutq madaniyati esa o'qituvchining so'z boyligi, grammatik to'g'riligi, uslubiy mahorati, muloqot etikasiga rioya qilishi bilan belgilanadi. Pedagogning nutqi samimiy, tushunarli, mantiqan izchil va ilmiy asoslangan bo'lishi kerak. O'quvchilar bilan suhbatda nojo'ya so'zlardan, keraksiz takrorlardan, ortiqcha emosional ohangdan qochish zarur. Nutq madaniyatining tarkibiy qismiga adabiy til me'yorlariga rioya qilish, so'z va iboralardan o'rinli foydalanish, fikrni aniq va lo'nda yetkazish kiradi. Tilning boy imkoniyatlaridan foydalanib, jonli misollar, obrazli ifodalar orqali murakkab tushunchalarni sodda tushuntirish pedagog mahoratini oshiradi. Pedagog nutqining turlari ham turlicha

bo'lib, ular vaziyatga qarab o'zgaradi. Dars jarayonidagi monologik nutq, tushuntirish, izohlash, sharhlash ko'rinishida bo'ladi. Muloqotga asoslangan dialogik nutq esa savol-javoblar, munozaralar, o'quvchilar fikrini faollashtirish orqali namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, o'qituvchining emotsional-ekspressiv nutqi o'quvchilarni ruhlantiradi, motivatsiya beradi, o'qishga qiziqtiradi. Pedagogning rasmiy nutqi yig'ilishlar, uchrashuvlar, taqdimotlarda qo'llanadi, u aniq, mantiqiy va usluban puxta bo'lishi lozim. Nutq shakllari ham pedagogik faoliyatda katta ahamiyatga ega. Og'zaki nutq darsning asosiy vositasi bo'lsa, yozma nutq, topshiriqlarni shakllantirish, ma'lumot yetkazish, hisobot va baholash jarayonida qo'llaniladi. Og'zaki nutqda intonatsiya, tembr, mimik va jestlardan foydalanish muhim. Yozma nutqda esa savodxonlik, tuzilish, izchillik hamda fikrning lo'nda ifodalanishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAXLILI

Bugungi globallashuv sharoitida pedagog nutqining shakl va janrlari ma'ruza, tushuntirish, suhbat, savol-javob, interfaol muloqot, motivatsion nutq kabi ko'rinishlar faoliyatning ajralmas bo'lagi bo'lib, ularni zamonaviy talablarga mos shakllantirish o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi. Shuning uchun mazkur mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar pedagogik jarayonda samarali muloqotni ta'minlash, pedagogning kasbiy kompetensiyasini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan ilmiy-amaliy yechimlarni ishlab chiqishda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga doir tadqiqotlar pedagog nutqining faqat lingvistik jihatgagina emas, balki psixologik va pedagogik omillariga ham e'tibor qaratmoqda. O'qituvchi nutqidagi emotsional ifoda, tana tili, mimika, ko'z bilan aloqa kabi noverbal unsurlar tinglovchining qiziqishi va diqqatining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, o'qituvchining intonatsion o'zgarishlar bilan boyitilgan nutqi o'quvchilarda eshitilgan ma'lumotni tezroq qabul qilish va yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Pedagogning hissiy jihatdan barqaror, muloyim va madaniyatli nutqi sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, o'quvchining shaxs sifatida qadrlanishini ta'minlaydi.

NATIJALAR

Hozirda, zamonaviy ta'lim texnologiyalari nutq texnikasiga yangicha talablarga yo'l ochmoqda. Multimedia vositalaridan foydalanish, onlayn darslar, taqdimotlar, videodarslar o'qituvchidan texnik jihatdan to'g'ri talaffuz, ravon so'zlash, ekran orqali auditoriyani jalb eta olish mahoratini talab qiladi. Bu esa pedagogning nafaqat an'anaviy, balki raqamli nutq madaniyatiga ham ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Pedagog faoliyatida nutq texnikasi va madaniyati o'qituvchining kasbiy mahoratida hal qiluvchi o'rin tutadi. Nutq texnikasi va uning shakllarini chuqur o'zlashtirgan pedagog o'quvchiga samarali ta'sir ko'rsatishi, o'quv jarayonini mazmunli tashkil

etishi, shuningdek, ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimi sharoitida pedagog faoliyatida nutq texnikasi va nutq madaniyatining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ta'lim jarayoni tobora murakkablashib, o'quvchilar yangi avlod talabalari sifatida tezkor, sodda, aniq va emotsional ta'sirga ega bo'lgan muloqot usullarini talab qilmoqda. Shu bois o'qituvchining nutqi, uning kasbiy kompetensiyasining markaziy elementi sifatida ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Pedagogning nutq texnikasi va madaniyati darsning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Ravon talaffuz, ovoz balandligi va tembri, to'g'ri intonatsiya, pauza va urg'ulardan samarali foydalanish o'quvchilarning mavzuni ongli qabul qilishini osonlashtiradi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida bilimlarni tezroq va chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Nutq madaniyatiga ega pedagog o'quvchilarni rag'batlantiradi, ularning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va mustaqil fikrlashga yo'naltiradi. Motivatsion nutq, interfaol suhbatlar va izohli tushuntirishlar o'quvchi faoliyatini faollashtiradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, pedagog faoliyatida nutq texnikasi va nutq madaniyati o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi asosiy tarkibiy qism sifatida ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq texnikasining ravon, aniq va ta'sirchan bo'lishi o'quvchilarda bilimlarni ongli qabul qilish, mavzuga qiziqish uyg'otish va tez eslab qolish imkoniyatini oshiradi. Nutq madaniyati esa pedagogning ma'naviy saviyasi, fikrlash madaniyati hamda kommunikativ etikasining ifodasi bo'lib, u o'quvchi shaxsiga madaniy ta'sir ko'rsatishning muhim vositasiga aylanadi. Zamonaviy pedagogik talablardan kelib chiqqan holda, o'qituvchidan nafaqat adabiy norma va mantiqiy izchillikka amal qilgan holda so'zlash, balki nutqning turli shakl va janrlaridan samarali foydalanish ham kutiladi. Ma'ruza, suhbat, savol-javob, interfaol muloqot, motivatsion murojaat kabi shakllarning to'g'ri tanlanishi o'quv jarayonining mazmunini boyitadi va o'quvchi faolligini oshiradi. Shuningdek, pedagogik muloqotda noverbal vositalarning o'rni, o'qituvchining mimika, intonatsiya va umumiy hissiy muvozanati yuqori ahamiyat kasb etadi. Raqamli ta'lim sharoitida pedagog nutqiga qo'yilayotgan talablar yanada ortib borayotgan bir paytda o'qituvchining nutq texnikasi va madaniyatini doimiy ravishda rivojlantirib borishi zarurdir. Bu jarayon o'z ustida muntazam ishlash, nutqiy mashqlar bajarish, ilmiy va badiiy adabiyotlarni muntazam mutolaa qilish, innovatsion ta'lim vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev, J. Pedagogik muloqot va nutq madaniyati. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019-yil.

2. Mavlonova, R., To'xtayev, B. Pedagogik kompetensiya va o'qituvchi nutqi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020-yil.
3. Qodirov, H. Nutq madaniyati va uslubiy mahorat asoslari. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018-yil.
4. Ergashev, O. Pedagogik texnologiyalar va kommunikativ faoliyat. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2021-yil.

